



O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI BOZORINING JORIY HOLATI TAHLILI

Djumayeva Muhlisaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-0417-7802

ib_muxlisa@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston turizm xizmatlari bozorining hozirgi holati va uning iqtisodiyotdagi o'rni tahlil etiladi. Tadqiqotda sohaning o'sish tendensiyalari, infratuzilma rivoji, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda xizmatlar sektorining iqtisodiy samaradorlikdagi ahamiyati yoritilgan. Natijalar turizm sohasining pandemiyadan keyingi davrda barqaror o'sish bosqichiga chiqqanini va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardosh yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. Shu asosda, sohaning kompleks rivojlanishini ta'minlash uchun tizimli yondashuv va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: turizm bozori, xizmatlar sohasi, infratuzilma, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАН

Джумаева Мухлисахон

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В статье анализируется современное состояние рынка туристических услуг Узбекистана и его роль в экономике страны. В исследовании рассматриваются тенденции роста отрасли, развитие инфраструктуры, процессы цифровой трансформации, а также значение сферы услуг для повышения экономической эффективности. Результаты показывают, что в постпандемийный период туристическая отрасль Узбекистана вышла на устойчивую траекторию роста и превратилась в одно из конкурентоспособных направлений национальной экономики. Подчеркивается необходимость комплексного подхода и усиления инновационных механизмов управления для обеспечения дальнейшего устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: рынок туризма, сфера услуг, инфраструктура, цифровая трансформация, устойчивое развитие.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF THE TOURISM SERVICES MARKET IN UZBEKISTAN

Djumayeva Mukhlisakhon

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. *The article analyzes the current state of Uzbekistan's tourism services market and its role in the national economy. The study examines the sector's growth trends, infrastructure development, digital transformation processes, and the contribution of services to economic efficiency. The findings indicate that in the post-pandemic period, Uzbekistan's tourism industry has entered a stable growth phase and become one of the most competitive sectors of the economy. The need for a comprehensive approach and the strengthening of innovative management mechanisms to ensure the industry's sustainable development is emphasized.*

Keywords: *tourism market, service sector, infrastructure, digital transformation, sustainable development.*

Kirish.

Turizm sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmatlar sektorida o'sish, bandlik darajasini oshirish va hududlar iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasida turizmni iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa turizm xizmatlari bozorining dinamik o'zgarishlariga olib kelmoqda.

Hozirgi davrda turizm xizmatlari bozorida bir nechta asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Birinchidan, xorijiy turistlar sonining barqaror o'sishi va ichki turizm hajmining kengayishi sohani yanada jozibador qilmoqda. Ikkinchidan, mehmonxona xo'jaligi, transport infratuzilmasi va gid-tarjimon xizmatlarining rivojlanishi turizm mahsulotlarining sifatini oshirmoqda. Uchinchidan, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va virtual gid xizmatlari kabi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi iste'molchilarning turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining joriy holati mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari va xalqaro talabning ortishi bilan ham uzviy bog'liq. Sharq va g'arbni bog'lovchi transport yo'laklari bo'yicha yangi imkoniyatlar, ekologik va madaniy turizm segmentlarining rivojlanishi sohani diversifikatsiya qilishga sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, raqobat muhiti, ekologik standartlarga rioya qilish, xizmatlar sifati va marketing strategiyalarining yetarli darajada takomillashmaganligi kabi muammolar ham mavjud.

Mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorining joriy holatini tahlil qilishning dolzarbligi uning iqtisodiyotdagi o'рни, barqaror rivojlanish strategiyalariga ta'siri va xalqaro integratsiyadagi ahamiyati bilan izohlanadi. Bu tahlil amaliy jihatdan xizmatlar sifatini oshirish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va milliy turizm mahsulotini jahon bozorida raqobatbardosh qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur masala nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki siyosiy qarorlar va amaliy strategiyalarni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston turizm xizmatlari bozorining joriy holatini tahlil qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar sohaning imkoniyatlari va muammolarini har xil yondashuvlarda yoritadi. Tadqiqotchilar tomonidan turizm bozoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida aholi farovonligi, infratuzilma, xavfsizlik va ekologiya ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ayniqsa xavfsizlik va farovonlik chet ellik turistlar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi (Safarov va boshqalar, 2022). Shuningdek, mualliflar pandemiyaning salbiy oqibatlari uzoq muddat davom

etishi mumkinligi qayd etib, xavfsizlikni oshirish va iqtisodiy farovonlikni mustahkamlash sohani rivojlantirishning muhim sharti ekanligini qayd etadilar. Fei (2024) esa O'zbekiston turizm bozorining istiqbollarini tahlil qilib, mamlakatning noyob geografik joylashuvi va ko'p madaniyatli muhiti xorijiy va mahalliy turistlarni jalb etishda katta salohiyat yaratishini ta'kidlaydi. Biroq tarixiy, siyosiy va iqtisodiy omillar bozorni cheklab turgani, shu sababli barqaror rivojlanish uchun xizmatlar sifatini oshirish, milliy turizm brendini kuchaytirish va xalqaro bozorda faol ishtirok etish zarurligi u tomonidan alohida qayd etiladi.

Fayziyevning (2025) ilmiy qarashlari sohadagi o'sishni hukumat tashabbuslari, infratuzilma loyihalari va xalqaro e'tibor bilan izohlaydi. Shu bilan birga, xizmatlar sifati, infratuzilma va inson resurslari sohasidagi muammolar sektorning to'liq salohiyatini ochishga to'sqinlik qilayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, barqaror turizmni rivojlantirish, raqamli marketingni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish sohani yangi bosqichga olib chiqadi. Boshqa tadqiqotchilar esa O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining raqamli transformatsiyasini o'rganib, mobil texnologiyalar, "aqlli" infratuzilma va ijtimoiy tarmoqlarni rivojlanishning yangi drayverlari sifatida baholaydilar (Tashpulatova va boshqalar, 2024). Shu bilan birga, raqamli savodxonlikning pastligi, axborot xavfsizligi va an'anaviy xizmatlar bilan integratsiya muammolari ham mavjudligini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, raqamli innovatsiyalarni strategik joriy etish orqali milliy turizm bozorini global miqyosda raqobatbardosh qilish mumkin.

Boshqa izlanishlarda mavsumiylik muammosi dolzarb masala sifatida ko'tarilib, pandemiya davrida xorijiy turistlar sonining keskin kamaygani bozor tashqi omillarga qanchalik sezgir ekanini ko'rsatib bergan (Kilichova va boshqalar, 2023). Bu tadqiqotlarda mavsumiylikka qarshi strategik choralar, xizmatlar sifatini oshirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Eshpulatov (2024) esa o'z izlanishlarida turizm xizmatlari bozorining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va xizmatlar sifatini oshirish masalalarini yoritib, xizmatlar diversifikatsiyasi, infratuzilmani rivojlantirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, statistik baholash va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili O'zbekiston turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish borasida olimlarning turfa yondashuvlarga ega ekanini ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlarda xavfsizlik va aholi farovonligi ustuvor omillar sifatida belgilangan bo'lsa, boshqalarida xizmatlar sifati hamda infratuzilma muammolari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ayrim izlanishlar raqamli transformatsiyaning imkoniyatlari va yuzaga keladigan xatarlarini yoritib bergan bo'lsa, yana bir qator ishlarda mavsumiylik va tashqi omillarning ta'siri o'rganilgan. Mazkur turli yondashuvlarning uyg'unlashuvi O'zbekiston turizm xizmatlari bozorini barqaror rivojlantirish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqola O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorining joriy holatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, sohaning hozirgi rivojlanish bosqichini ilmiy asosda o'rganishni maqsad qilgan. Tadqiqotda turizm xizmatlari bozorining iqtisodiy samaradorligi, infratuzilma rivoji, xizmatlar sifati, xavfsizlik omillari hamda raqamli transformatsiya jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib, uning rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu jarayon mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xalqaro imiji va madaniy merosining targ'ibotida muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda dunyo bo'ylab turizmga bo'lgan talabning qayta tiklanishi O'zbekistonda ham turizm xizmatlari bozorining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Xorijiy turistlar oqimining

ortishi, ichki turizm salohiyatining faollashuvi, transport va mehmonxona infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar sektor rivojiga kuchli turtki bo'lmoqda.

O'zbekistonda turizm xizmatlari bozori bugungi kunda ko'p tarmoqli va murakkab tizimga aylangan bo'lib, unda turli darajadagi ishtirokchilar faoliyat yuritmoqda. Bu bozorni faqatgina sayohatlarni tashkil etuvchi agentliklar bilan chegaralab bo'lmaydi, aksincha, u mehmonxona xo'jaligi, transport, gastronomiya, ekskursivodlik, ko'ngilochar xizmatlar, raqamli platformalar va boshqa ko'plab xizmat turlarini o'z ichiga oluvchi yirik ekotizimni tashkil etadi. Bugungi raqobatbardosh va jadal rivojlanayotgan turizm muhitida ushbu tizimda ishtirok etayotgan har bir subyekt o'z funksiyasiga ega bo'lib, umumiy bozor rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, raqobat muhiti tobora kuchayib, xizmat sifati, narx siyosati va mijozlarga individual yondashuv asosiy ustunlik omillariga aylanmoqda. Bozorning joriy holatini to'liq anglash va uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash uchun ushbu segmentni tarkibiy jihatdan o'rganish, muammolarni aniqlash hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur.

Bozorning asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini turoperatorlar va turagentliklar tashkil etadi. "Silk Road Destinations", "Anur Tour", "OrexCA" kabi yetakchi kompaniyalar O'zbekistonning turistik salohiyatini xorijiy bozorlarda targ'ib etish, kompleks sayohat paketlarini shakllantirish, mehmonxona band qilish, logistika va ekskursiya xizmatlarini ko'rsatish orqali muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, mehmonxona va joylashtirish vositalari segmenti ham jadal rivojlanib, "Hyatt", "Hilton", "Courtyard by Marriott" kabi xalqaro brendlar bilan bir qatorda milliy butik mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylari turli toifadagi sayyohlar ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

Transport xizmati ham turizm ekotizimining ajralmas qismi bo'lib, "Uzbekistan Airways", "Qanot Sharq" hamda temiryo'l, avtobus va shaxsiy transfer xizmatlari sayyohlar uchun qulay va xavfsiz harakatlanish imkonini yaratmoqda. Ayni paytda, raqamli texnologiyalar ham turizm bozorining tarkibiy elementi sifatida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Booking.com, Airbnb, TripAdvisor va UZTOURISM.UZ kabi onlayn platformalar xizmatlarni bronlash, baholash va tavsiyalar olish jarayonini soddalashtirib, turizm xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Bozor faoliyatining samaradorligini ta'minlashda davlat va nodavlat institutlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, hududiy hokimliklar va professional uyushmalar sohani rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish orqali tarmoqning barqaror va tizimli rivojlanishini ta'minlamoqda. Mamlakatimizda turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurs imkoniyatlari mavjudligini hisobga olsak, u holda bu sohani iqtisodiyot uchun, umuman jamiyatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hozirgi davrda turizm sohasi ko'plab mamlakatlar milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylanib, yalpi ichki mahsulot o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda sezilarli rol o'ynamoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, 1996 yilda dunyo bo'yicha turizm sohasida 225 millionga yaqin ish o'rni mavjud bo'lgan bo'lsa, 2006 yilga kelib bu ko'rsatkich 355 milliondan oshgan. Hozirgi kunda esa global miqyosda har 10 ishchi kuchining bittasi bevosita yoki bilvosita turizm bilan bog'liq faoliyatda band hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda bu ulush yanada yuqori darajaga yetgan bo'lib, masalan, Ispaniyada iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda 10,5 foizi, Maltada esa 15 foizdan ortig'i turizm sohasida bandlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston misolida ham turizm milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. So'nggi yillarda bu sohada band aholining soni barqaror o'sib, 2024 yil yakuniga ko'ra 391 mingdan ortiq fuqarolar to'g'ridan-to'g'ri turizm va unga xizmat

ko'rsatuvchi tarmoqlarda faoliyat yuritgan. Bu esa turizmning bandlik darajasiga, xususan, yoshlar va ayollar bandligini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shayotganini ko'rsatadi.

Natijada, O'zbekistonda turizm nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki mintaqaviy rivojlanish, xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish hamda aholi daromadlarini oshirishning muhim manbai sifatida tobora muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

Quyidagi 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar, O'zbekistonda turizm sektorining iqtisodiy o'sishi va uning iqtisodiyotdagi ahamiyatini o'lchashda muhim rol o'ynaydi deb xisoblaymiz.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida O'zbekistonda turizm sektori mamlakat iqtisodiyotining xizmatlar sohasi tarkibida eng dinamik o'suvchi yo'nalishlardan biriga aylanganligini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davrda turizm xizmatlari eksporti hajmi keskin oshib, 2020-yildagi 370 mln AQSh dollaridan 2024-yilda 3489 mln AQSh dollariga yetgan. Bunday o'sish pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichi muvaffaqiyatli kechganini hamda O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi pozitsiyasi mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Eksport hajmining bu darajada o'sishi xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi rolini sezilarli kengaytirgan, shuningdek, mamlakat to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

1-jadval

**2020-2024 yillarda O'zbekistonda turizm sektorining o'sish
dinamikasi va xizmatlar hajmi**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1	Turizm xizmatlari eksporti	mln. AQSh dollari	370	422,1	1609,8	2143,1	3489
2	Turizm sohasida xizmatlar eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi	%	2,7	16,6	41,2	41,4	48,8
3	Turizmning YaIM dagi ulushi	%	0,4	0,7	1,4	1,7	2,35
4	YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi	%	41,6	41,8	44,2	46,2	47,4

Turizm xizmatlari eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi ham muhim o'zgarishlarni namoyon etdgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich atigi 2,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 48,8 foizgacha oshgan. Bu esa O'zbekiston xizmatlar eksportining deyarli yarmiga yaqini turizm tarmog'iga to'g'ri kelayotganini anglatadi. Mazkur jarayon mamlakatda turizm sohasiga qaratilayotgan e'tibor, xorijiy turistlar oqimining ortishi, transport-logistika infratuzilmasining yaxshilanishi va marketing siyosatining samaradorligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, bu o'sish turizmning valyuta tushumlari manbasi sifatidagi ahamiyatini yanada oshirgan.

Turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020-yildagi 0,4 foizdan 2024-yilda 2,35 foizgacha ko'tarilgan. Bu raqamlar turizm sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi hissasi besh yil ichida deyarli besh baravar oshganini ko'rsatadi. Bunday natija turizmni iqtisodiy o'sishning barqaror drayveri sifatida shakllanayotganini, shuningdek, uning boshqa tarmoqlar, xususan, transport, savdo, ovqatlanish, madaniyat va xizmat ko'rsatish bilan sinergetik bog'liqligini ta'kidlaydi. Turizmning iqtisodiy tizimdagi bunday o'sish tendensiyasi mamlakatda bandlikni oshirish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va xususiy sektor faolligini kengaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, YaIM tarkibida xizmatlar sohasining umumiy ulushi 2020-yildagi 41,6 foizdan 2024-yilda 47,4 foizgacha ko'tarilgan. Bu ko'rsatkich xizmatlar sektorining umumiy iqtisodiy struktura ichidagi rolini mustahkamlayotganini anglatadi. Ushbu jarayon O'zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, ya'ni xomashyo eksportiga bog'liqlikni kamaytirish va xizmatlar tarmog'i orqali barqaror o'sishga erishish siyosatining samarasini ifodalaydi. Ayniqsa, turizmning ushbu soha ichida yuqori sur'atlarda o'sayotgani mamlakat iqtisodiy strategiyasida xizmatlar sektori ustuvor yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi.

2-jadval

**2020-2024 Yillarda O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivoji va
turistik faoliyat tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
			2020	2021	2022	2023	2024
1	Tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni	mln. kishi	1,55	1,88	5,23	6,6	8,2
2	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni	dona	1156	1085	1167	1387	2383
3	Turistik firma va tashkilotlar soni	dona	337	288	348	593	743
4	Turizm sohasida band bo'lganlar	ming kishi	190,8	208,1	214,6	334	391

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, xorijiy turistlar oqimi, joylashtirish vositalari soni, turistik firmalar faoliyati va bandlik darajasi so'nggi besh yil ichida uzluksiz ortib borgan. Bu holat O'zbekiston turizm bozorining liberallasuvi, infratuzilma sifatining yaxshilanishi va marketing siyosatining faollashuvi bilan izohlanadi.

2020-yilda pandemiya ta'siri tufayli xorijiy turistlar soni atigi 1,55 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 8,2 million kishiga yetgan, ya'ni besh yil ichida qariyb 5 baravar o'sish kuzatilgan. Mazkur ko'rsatkich O'zbekistonning xalqaro turizm xaritasidagi o'rnini mustahkamlab, so'nggi yillarda transport infratuzilmasi, elektron vizalar tizimi va xalqaro reklama kampaniyalari kabi tashabbuslarning samarasini ko'rsatadi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida xalqaro turistlar oqimining yillik o'sish sur'atlari o'rtacha 25-30 foizni tashkil etmoqda.

Joylashtirish vositalarining ko'payishi ham shunga mos ravishda tez sur'atlarda kechgan. Agar 2020-yilda mamlakatda 1156 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda ular soni 2383 taga yetgan. Bu ko'rsatkich infratuzilmaning ikki baravarga yaqin kengayganini bildiradi. Joylashtirish tizimining bunday tez rivojlanishi davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari, xususiy sektor ishtirokidagi investitsiyalar va mehmonxona xizmatlari standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish natijasi hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar tomonidan oilaviy guest-house va hostel tipidagi kichik joylashtirish maskanlarining ko'paygani ham turizm infratuzilmasining diversifikatsiyasiga xizmat qildi.

Turistik firma va tashkilotlar soni ham 2020-yildagi 337 tadan 2024-yilda 743 taga ko'paygan. Bu deyarli ikki baravar o'sishni anglatib, xususiy turizm biznesi uchun yaratilgan bozor sharoitlarining yaxshilanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ichki turizm yo'nalishlarini rivojlantirish, onlayn booking va raqamli marketing mexanizmlarining joriy etilishi natijasida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari faolligi sezilarli darajada oshgan. Bu holat turistik xizmatlar turlarining ko'payishiga va ichki raqobat ortishiga olib kelgan.

Turizm sohasida band bo'lganlar soni 2020-yilda 190,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 391 ming nafarga yetgan. Bu davr mobaynida bandlik deyarli ikki baravar oshganini anglatadi. Bandlik darajasining bunday ko'tarilishi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri turizm korxonalarida, balki logistika, ovqatlanish xizmatlari, savdo va madaniy sohalarda ham yangi ish o'rinlarining yaratilganini ko'rsatadi. Bu esa turizm sektori aholi bandligini oshirishda muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifani bajarayotganligini ko'rsatmoqda.

Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati keskin oshib bormoqda. Bu davrda turizm xizmatlari eksportining jadal o'sishi, uning umumiy xizmatlar eksportidagi ulushining sezilarli kengayishi va YaIMdagi hissasining ortishi mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirib, xizmatlar sektorini iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining rivojlanishi, xorijiy turistlar oqimining ortishi, mehmonxonalar tarmog'i va turistik firmalar sonining ko'payishi, sohada bandlikning kengayishi bu yo'nalishning kompleks taraqqiyot bosqichiga o'tganini tasdiqlaydi. Natijada, O'zbekiston turizmi nafaqat madaniy va ijtimoiy, balki iqtisodiy rivojlanishning ham strategik yo'nalishiga aylanib, mamlakatni Markaziy Osiyoda turizm rivojining mintaqaviy markazlaridan biriga aylantirish sari barqaror qadamlar tashlamoqda.

Biroq, erishilgan yutuqlarga qaramay, O'zbekistonda turizm sohasida barqaror va raqobatbardosh rivojlanishni ta'minlash uchun hali ham yechimini kutayotgan bir qator tizimli masalalar mavjud (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda turizm sohasidagi asosiy muammolar va ularning sabablari

No	Mavjud muammolar	Asosiy sabablar
1	Turizm infratuzilmasining hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlanganligi	- turizm infratuzilmasi asosan yirik shaharlarda (toshkent, samarqand, buxoro, xiva) jamlangan; - chekka hududlarda yo'l-transport, kommunikatsiya va joylashtirish obyektlarining yetishmasligi; - mintaqaviy turizm strategiyalarining yetarli darajada amalga oshirilmayotgani.
2	Turistik xizmatlar sifati va kadrlar salohiyatining yetishmasligi	- turizm sohasida xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislar yetishmasligi; - servis madaniyati va xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimining sust rivojlanganligi; - ta'lim tizimida amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarining kamligi.
3	Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani	- ko'plab turistik obyektlarda onlayn rezervatsiya va elektron to'lov tizimlarining cheklanganligi; - axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi; - turizm marketingida raqamli platformalarning sust qo'llanilishi.

Birinchidan, turizm infratuzilmasining hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlanishi mamlakat turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. So'nggi besh yillikda mehmonxonalar soni va turistlar oqimi sezilarli oshgan bo'lsa-da, ushbu infratuzilma asosan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlarda to'plangan. Shu sababli, tog'li, cho'l va ekologik turizm imkoniyatlariga ega bo'lgan Navoiy, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo kabi hududlarda transport, axborot va joylashtirish infratuzilmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa mamlakat ichida turistlar oqimini mintaqalar bo'yicha muvozanatli taqsimlashni qiyinlashtiradi va ichki turizmning iqtisodiy samaradorligini kamaytiradi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun har bir viloyatning turizm salohiyatini inobatga olgan holda alohida hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklik asosida

mehmonxona va yo'l infratuzilmasi qurilishini jadallashtirish, shuningdek, ekoturizm, qishloq turizmi va madaniy yo'nalishlarni rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, turistik xizmatlar sifati va kadrlar salohiyatining yetarli emasligi sohaning raqobatbardoshligini pasaytirayotgan omillardan biridir. Turistik kompaniyalar sonining o'sishiga qaramay, ularning aksariyati xizmat ko'rsatish madaniyati, xorijiy tillarni bilish darajasi va mijozlar bilan ishlash kompetensiyasi jihatidan xalqaro talab darajasiga yetmagan. Mehmonxona xodimlari, gidlar va menejerlar orasida malaka yetishmovchiligi turistlar tajribasining sifati va O'zbekistonning xalqaro imijiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammoni hal etish uchun turizm ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimini (nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi model) keng joriy etish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan o'quv dasturlarni tatbiq etish, hamda servis xodimlari uchun malaka oshirish va sertifikatlash markazlarini tashkil etish lozim.

Uchinchidan, sohada raqamli infratuzilmaning yetarli rivojlanmagani ham muhim masalalardan biridir. Hozirda ko'plab turistik obyektlarda onlayn rezervatsiya, elektron to'lov va interaktiv yo'nalish xaritalari tizimlari to'liq ishlamaydi. Bu esa turistlar uchun qulaylik darajasini pasaytiradi va xizmatlardan foydalanishni murakkablashtiradi. Shu bois "Smart Tourism" platformasini yaratish, barcha turistik obyektlarni yagona raqamli ekotizimga birlashtirish, onlayn marketing va "digital branding" mexanizmlarini joriy etish turizmni raqamlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ladi.

O'zbekistonda turizm sohasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun infratuzilmani hududlar bo'yicha muvozanatli rivojlantirish, xizmatlar sifatini xalqaro darajaga olib chiqish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarur. Shu yo'l bilan mamlakat nafaqat Markaziy Osiyoda, balki kengroq xalqaro turizm maydonida ham raqobatbardosh turistik markaz sifatida mustahkam o'rnini egallashi mumkin bo'ladi deb xisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tahlillar O'zbekiston turizm xizmatlari bozorining postpandemik davrdan so'ng barqaror o'sish trayektoriyasiga chiqqanini va iqtisodiyotning raqobatbardosh tarmoqlaridan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Turizm xizmatlari eksportining keskin o'sishi, uning umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi va YaIMdagi hissasining ortishi mamlakatda xizmatlar sektorining yetakchi segmentga aylanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy turistlar oqimining ortishi, mehmonxona va joylashtirish infratuzilmasining kengayishi, turistik firmalar faoliyatining faollashuvi hamda sohada bandlik darajasining ko'tarilishi turizmning kompleks rivojlanish bosqichiga o'tganini bildiradi.

O'zbekiston turizm bozorining asosiy ustunliklari turistik mahsulot portfelining boyishiga xizmat qilmoqda. Muzey, madaniy obyektlar va xalqaro mehmonxona tarmoqlarining kengayishi, shuningdek raqamli bron platformalarining faol joriy etilishi bu jarayonni yanada kuchaytirdi. Shu bilan birga, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy turistlar oqimi asosan MDH mamlakatlaridan shakllanmoqda, bu esa tashrif maqsadlari va xizmat turlarining diversifikatsiyasini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltiradi. O'zbekiston turizm bozorining geografik tarkibini kengaytirish, uzoq xorij mamlakatlaridan turistlar oqimini oshirish hamda yangi segmentlarga yo'naltirilgan marketing siyosatini ishlab chiqish soha raqobatbardoshligini yanada mustahkamlaydi.

Resurslar boyligi va infratuzilmadagi ijobiy o'zgarishlar fonida, turizm qo'shimcha qiymat yaratish uchun xizmat sifati, inson kapitali va raqamli transformatsiyani asosiy ustun yo'nalishlarga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan mamlakat turizmida mavsumiylik muammosini yumshatish, xizmatlar eksportini kengaytirish va O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markaz sifatidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlash imkoniyatlari ochiladi.

Adabiyotlar/Ўмепамыпа/Reference:

Eshpulatov E. Statistical evaluation of tourism sector activity and its prospects in Uzbekistan. *EPRA International Journal of Economic and Business Review*. 2024. p. 15-19.

Fayziyev B. Prospects for the development of the tourism sector in Uzbekistan. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*. 2025. p. 69-72.

Fei X. (2024). Research on the development prospects of Uzbekistan tourism market economy. *Economics and Innovative Technologies*, 12(1), 237-245.

Kilichova O., Murodullayev B., Norkulova D. Mitigating seasonality in uzbekistan's tourism sector: impacts and countermeasures. *Indonesian Journal of Cultural and Community Development*. 2023.

Safarov, B., Al-Smadi, H., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilieş, A., Grama, V., Ilieş, D., Vargáné, K., & Dávid, L. Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. *Sustainability*. 2022.

Tashpulatova L., Suyunova B. (2024) Digital transformation in tourism: trends, challenges and opportunities. *International Journal of Global Economic Light*. p. 1-8.